

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati.....	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar.....	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar.....	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochiliyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики Бозорова Ирина Жуманазаровна	242
Mahalliy lashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida) Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	247
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	254
Aktualnye voprosy finansirovaniya investitsionnykh proektov Шомуродов Равшан Турсункулович. Раширова Дилфуза Ганиевна	259
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	266
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni Raxmatov Aziz Tolipovich	276
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	280
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	286
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzallikkleri Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	290
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	295
Raqamli iqtisodiyat sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari Bobomuratov Imomkul Islamovich	299
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari Kobilova Zebo Bobokulovna	306
Zelёnoye budzhetirovaniye kak instrument povysheniya effektivnosti upravleniya gosudarstvennymi finansami Наимов Шохрух Шарофиддинович	311
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	318
Oсобенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья Маджидов Абдинаби Аманович	324
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi" dagi o'rnini yaxshilash choralari Umarova Durdona Abdumannabovna	330
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	335
Analiz mehanizmov upravleniya i kontrolya finansovymi resursami na predpriyatiyah s gosudarstvennoy doley, na primeire AO "Uzmetkombinat" Ахмедов Дилшод Турсункулович	340
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili Eshkarayev Bobir Chariyevich	347
Sравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний Утемуратова Магрифа Пердебаевна	354
Uy - joy communal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	359



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruving kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruв samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



BANK KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGI VA UNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI

Temirov Abdulaziz Alimjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: abdulaziz38@mail.ru

ORCID: 0000-0002-6482-3482

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligi tushunchasi va uni baholash usullari, bank korporativ boshqaruvi samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar hamda ularning turlari yoritilgan. Bank korporativ boshqaruvi samaradorligining moliyaviy ko'rsatkichlari mamlakatimizning ayrim tijorat banklari misolida tahlil qilinib, baholangan. Shuningdek, bank korporativ boshqaruv samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholashni takomillashtirishga doir fikrlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, korporativ boshqaruv samaradorligi, moliyaviy mexanizm, moliyaviy ko'rsatkich, samaradorlikni baholash usullari, aktivlar sifati, monitoring, moliyaviy resurs.

Abstract: The article presents the concept of corporate governance effectiveness in commercial banks and methods of its assessment, financial indicators and their types used in assessing the effectiveness of corporate governance of banks. The financial performance indicators of corporate governance of banks are analyzed and evaluated using the example of some commercial banks in the country. Opinions on improving the assessment of the effectiveness of corporate governance of commercial banks based on its financial indicators are also summarized.

Keywords: commercial bank, corporate governance efficiency, financial mechanism, financial indicator, efficiency assessment methods, asset quality, monitoring, financial resource.

Аннотация: В статье даны понятие эффективности корпоративного управления в коммерческих банках и методы ее оценки, финансовые показатели и их виды, используемые при оценке эффективности корпоративного управления банков. Проанализированы и оценены финансовые показатели эффективности корпоративного управления банков на примере некоторых коммерческих банков страны. Также обобщены мнения по совершенствованию оценки эффективности корпоративного управления коммерческих банков на основе его финансовых показателей.

Ключевые слова: коммерческий банк, эффективность корпоративного управления, финансовый механизм, финансовый показатель, методы оценки эффективности, качество активов, мониторинг, финансовый ресурс.

KIRISH

So'nggi yillarda banklar va korporatsiyalarning yagona iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonining faollashuvi tufayli nafaqat alohida mamlakatlarda, balki xalqaro miqyosda ham korporativ boshqaruv masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari ham korporativ boshqaruv amaliyotini rivojlantirish bo'yicha global tendensiyalardan chetda qolmay, ularning eng yaxshi tajribalariga moslashishga intilmoqda. Shu bois, bank sohasidagi korporativ boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, uning modellari, boshqaruv sifatini baholash usullari hamda tijorat banklari orasida ilg'or tajribalarni ommalashtirish istiqbollari bo'yicha nazariy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Banklar har qanday rivojlangan iqtisodiyotning muhim elementi hisoblanadi. Chunki ular tijorat korxonalarini kredit resurslari bilan ta'minlaydi, iqtisodiyotning turli segmentlari o'rtaida kapital oqimini samarali taqsimlashga hissa qo'shadi. Hozirgi vaqtda banklar uchun ustuvor vazifa sifatida korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotini shakllantirish masalasi dolzarbdir.

Tijorat banklari faoliyati daromad olishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning turli sohalariga samarali joylashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, banklar kapitallashuv darajasini oshirish, faoliyat ko'lamini kengaytirish kabi boshqa maqsadlarni ham daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lishi sharoitida amalga oshirishi mumkin. Biroq, ularning faoliyati doimo turli risklar bilan bog'liq bo'lib qoladi. Demak, tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun moliyaviy mexanizmni, xususan, moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish muhim hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligi masalalari xorijlik va mahalliy iqtisodchilar tomonidan keng tahlil qilingan. Xususan, Sh. Ximajning fikricha, "banklarda korporativ boshqaruvning uchta asosiy mexanizmi — aksiyadorlar tarkibi, kuzatuv kengashi va risklarni boshqarish — bank samaradorligi hamda risk darajasiga ta'sir qiladi" [2]. S. Ulla tomonidan esa korporativ boshqaruv elementlari va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [3]. Ye. Golovan va O. Onoshko fikricha, "bank korporativ boshqaruv tizimi moddiy rag'batlantirish mexanizmlarining bankda qabul qilingan axloqiy qadriyatlar, maqsadlar, strategiya va nazorat tizimiga muvofiqligini ta'minlashi kerak" [6]. V. Belousova esa bankka egalik shakli va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, xorijiy banklar foyda olish samaradorligida yuqori, davlat banklari esa xarajatlarni boshqarishda ko'proq samarali ekanligini aniqlagan [1].

I. Blank fikricha, moliyaviy mexanizm "korxonaning moliyaviy faoliyati sohasidagi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy elementlar to'plamidir" [5]. I. T. Balabanov esa moliyaviy mexanizmni "molivayi resurslardan foydalanishni tashkil etish, rejalashtirish va rag'batlantirishda ifodalangan moliyaviy vositalarning ishlash tizimi" sifatida taqdim etadi. Uning tarkibi moliyaviy usullar, moliyaviy vositalar, huquqiy yordam, tartibga solish va axborot ta'minoti kabi elementlardan iborat ekanini ta'kidlaydi [4].

O'rganishlar asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tijorat banklari faoliyati ikki tomonlama xususiyat bilan tavsiflanadi. Birinchidan, u foyda olishga qaratilgan, chunki bu banklar tijorat muassasalarini hisoblanadi. Shu bilan birga, ular mijozlarga pullik asosda kredit, hisob-kitob va kassa xizmatlari, konsalting xizmatlari ko'rsatadi hamda mijozlarning qimmatli qog'ozlar portfellarini boshqaradi. Ikkinchidan, tijorat banklari faoliyati makroiqtisodiy ahamiyatga ega, chunki ular iqtisodiyotdagi naqd va naqd bo'lmagan pul aylanmasiga xizmat ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida davlatning makroiqtisodiy barqarorligi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida moliyaviy mexanizm va uning tarkibiy qismlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni o'rganishda ta'rif va tushunchalarning shakllanishini qiyosiy solishtirish, mavjud ma'lumotlarni iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash hamda ilmiy abstraksiyalash yondashuvlaridan foydalanildi. Shuningdek, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullariga ham keng murojaat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank korporativ boshqaruv samaradorligi bu bankda qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligi, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvozanat, kuzatuv kengashi va bank boshqaruvining samarali faoliyati, shuningdek, bank faoliyatidagi mas'uliyatlilik va hisobdorlik darajasi bo'lib hisoblanadi. Bank korporativ boshqaruvda moliyaviy mexanizmlarni joriy etishning maqsadlari bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bank investorlari (omonatchilari) va aksiyadorlar ishonchini oshirish, bank risklarini kamaytirish hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida shaffof munosabatlarni o'rnatishdan iboratdir.

Bank korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyotida boshqaruv samaradorligini baholash uchun bank iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishga asoslangan korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning moliyaviy usullari eng ko'p qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu usullar moliyaviy holatni baholash usullari va bozor qiyamatini baholash usullariga bo'linadi.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishga asoslangan usullar hozirgi kunda eng keng tarqalgan. Biroq, bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu usullarning obyektiv kamchiliklari mayjud va ularni quyidagicha ifodalash mumkin [9]. Birinchidan, moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan o'tkazayotgan kompaniyalar, jumladan banklar ham o'z hisobotlarini e'lon qilishni turli yo'llar bilan kechiktiradilar. Shuning uchun aniq ma'lumotlarni olish yillar davomida mavjud bo'imasligi mumkin. Ikkinchidan, ma'lumotlar e'lon qilangan taqdirda ham, ular "ijodiy qayta ishlangan" (yoki o'zgartirilgan) bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda kompaniyalar, jumladan banklar o'z faoliyatini oqlash istagi bilan ajralib turadi, ba'zan bu soxtalashtirishga olib keladi. Uchinchidan, faoliyat ma'lumotlariga ko'ra olingan ba'zi nisbatlar to'lovga layoqatsizlikni ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir vaqtida, boshqalari barqarorlik, hatto ba'zi yaxshilanishlar to'g'risida xulosa chiqarish uchun asos yaratishi mumkin.

Bunday sharoitda ishlarning haqiqiy holatini baholash qiyin. Dastlabki ikkita e'tiroz haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, turli mamlakatlarda qabul qilinayotgan korporatsiyalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talablari ushbu e'tirozlarning to'lovga layoqatsizligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi, chunki oshkor qilish talablari bir qator muhim elementlarni o'z ichiga oladi. Bu hisobotlarni har chorakda bir marta (AQSH, Rossiya, shuningdek O'zbekistonda) yoki olti oyda bir marta (Germaniyada) taqdim etish talab qilinishi, korporatsiyalar uchun hisobotlarni topshirishni kechiktirish imkoniyatini istisno qiladi. Shuningdek, majburiy auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.



Tijorat bankining bozor qiymati nuqtayi nazaridan boshqaruv samaradorligini baholashning mavjud yondashuvlari turli usullarni o'z ichiga oladi. Ular ichida bank daromadlarining kapitallashuvini baholash asosida bozor qiymatini aniqlash usuli hamda bank aksiyalarining kurs qiymati asosida baholash usuli bo'lib hisoblanadi.

Bankning moliyaviy holatini tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi: avvalo bankrotga uchrash ehtimoli baholanadi (Altmanning ikki omilli modeli orqali), so'ng bankning moliyaviy barqarorligi baholanadi (Taffler modeli). Altmanning ikki omilli modeli kompaniyaning bankrotlik darajasini baholaydi, Tafflerning ko'p omilli modeli esa kompaniyaning to'lov layoqati modelini tuzadi. Natijada barcha hisoblab chiqilgan ko'satkichlar taqqoslanadi va bankning moliyaviy holati haqida xulosa chiqariladi.

Tijorat banklarda korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ikkinchi yondashuvi uning bozor qiymatini tahlil qilishga asoslanadi. Daromadni kapitallashtirish usuli bankning joriy daromadlarini kapitallashtirish koeffitsiyentiga bo'lisch orqali aniqlanadi. Bu usulning asosiy kamchiligi shundaki, uni qo'llash uchun zaruriy va majburiy shart bankning kelgusidagi daromadlari joriy daromadlar bilan bir xil darajada qolishini taxmin qilish hisoblanadi [8].

Shunday qilib, xorijdan o'zlashtirilgan va mahalliy sharoitlarda qo'llanayotgan korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning barcha usullari doim ham samarali bo'lavermaydi. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini baholashga yangicha yondashuvlar talab qilinadi. Bu vazifani Norton va Kaplanning muvozanatlangan ko'satkichlar tizimi usuli yordamida hal etish mumkin, chunki unda miqdoriy hisob-kitoblarni sifat baholari bilan to'ldirishga qaratilgan mexanizm ishlab chiqilgan [7]. Ular korporatsiyaning umumiy strategiyasi bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv samaradorligining barcha oshkora va yashirin omillarini baholashga yordam berishi mumkin. Bu usullarning asosiy kamchiligi shundaki, ularni samarali qo'llash uchun korporatsiya o'zining mufassal ko'satkichlar tizimini mustaqil ravishda ishlab chiqishi va uni qo'shimcha qiymat yaratish butun zanjiri bo'ylab barcha bo'linmalarda joriy qilishi zarur. Ko'satkichlar tizimini tanlashda subyektiv fikrning ta'siri usulning yana bir zaif nuqtasi hisoblanadi.

Ma'lumki, tijorat banklarida korporativ boshqaruv bankning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Bunda moliyaviy mexanizmlar korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi o'rinn tutadi.

Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning moliyaviy mexanizmlari sifatida bank boshqaruv tizimida moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishga qaratilgan vositalar, usulublar va mezonlar majmuasi tushuniladi. Uning asosiy elementlari sifatida moliyaviy ko'satkichlar (ROE, ROA, CIR, CAR), budgetlashtirish va xarajatlarni boshqarish, bank dividend siyosati, ichki nazorat va audit tizimi, bank risklarini boshqarish siyosatini ko'rsatish mumkin.

Quyidagi jadvalda tijorat banki korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning moliyaviy mexanizmlari va ularni qo'llash asosida yuzaga keladigan holatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Banklarda korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlashning moliyaviy yo'llari¹

No	Yo'llar	Mexanizmlar	Natijalar
1	Ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish	Budgetlashtirish tizimi:	Xarajatlar va daromadlar bo'yicha rejalashtirish va ularni tahlil qilish orqali menejmentning mas'uliyati oshadi
		Ichki audit xizmati	Tuzilmaga mustaqil va professional ichki audit organini joriy etiladi
		Komplayens xizmati	Moliyaviy qonunbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha maxsus nazorat mexanizmi shakllanadi
2	Raqamli va shaffof moliyaviy hisobot tizimini joriy etish	IFRS standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlar	Korporativ faoliyatning shaffofligi va investorlar uchun ishonchli axborot manbasini ta'minlaydi
		On-line hisobot platformalari	Aksionerlar va mijozlar uchun hisobotlarni elektron tarzda kuzatish imkoniyati
3	Korporativ moliyaviy rag'batlantirish tizimlari	Bank boshqaruvi uchun KPI asosida mukofotlash	Bank daromadlari ko'payadi, bank risklarini boshqarish samarasini ortadi, kapital rentabelligi (ROE) yuqorilaydi
		Aksiyalarga bog'liq bonuslar	boshqaruv a'zolarining bank manfaatlariga bog'lanishini ta'minlaydi.

¹ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi



4	Kapital tuzilmasi va moliyaviy barqarorlikni yaxshilash	1-darajali kapital miqdorini oshirish	Mustaqil investorlarni jalb qilinadi yoki bank obligatsiyalari chiqariladi
		Kapitalni optimal taqsimlash	Bank biznesining har bir yo'nalishi uchun kapital samaradorligini hisoblashga erishiladi
5	Risklar va aktivlar sifatini baholash moliyaviy vositalari	Stress-testlash va ssenariy tahlili	Bankning turli qiyin vaziyatlaridagi barqarorligini baholash
		Riskka tortilgan aktivlarni baholash	Bank aktivlarini risk darajasiga qarab moliyaviy nazorat qilish imkonini paydo bo'ladi
6	Investorlar bilan moliyaviy muloqot va IR Investor munosabatlari siyosati	Investor munosabatlari (IR) strategiyasi	Qisqa va uzoq muddatli moliyaviy rejalarini investorlar bilan ochiq va doimiy muloqot orqali shakllantirish imkonini tug'iladi
		Aksiyadorlar uchun moliyaviy taqdimotlar va vebinlar	Aksiyadorlar uchun moliyaviy taqdimotlar va vebinlar tashkil etiladi
7	Moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalar orqali boshqaruvni avtomatlashtirish	Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) asosida kredit risklarini tahlil qilish	Moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik integratsiya qilish imkoniyati yaratiladi
		Blokcheyn texnologiyalari orqali moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshirish	

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar muhim o'rnatadi. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatining samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va korporativ boshqaruvning qanchalik oqilona yo'lg'a qo'yilganini aniqlashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda keng qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar²

Nº	Ko'rsatkichlar	Turlari	Mazmuni
1	Rentabellik ko'rsatkichlari	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi
		Kapital rentabelligi (ROE)	Aksionerlar sarmoyasi qay darajada daromad keltirishiga baho beradi.
2	Likvidlik ko'rsatkichlari	Joriy likvidlik koefitsiyenti	Bankning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyatini ko'rsatadi
		Qisqa muddatli likvidlik koefitsiyenti	Naqd pul, bozor aktivlari va tez aylanuvchi aktivlar bilan majburiyatlarni qoplash darajasi
3	Kredit portfeli sifati va risk darajasi	Muddati o'tgan kreditlar ulushi (NPL)	Korporativ boshqaruv kredit xavflarini qay darajada nazorat qilishini ko'rsatadi
		Rezervlar / muddati o'tgan kreditlar nisbati	Muddati o'tgan kreditlarni qoplash uchun yetarlicha zaxira mavjudligiga baho beradi
4	Kapital yetarliligi ko'rsatkichlari	Bazel talablari asosida hisoblanadigan kapital yetarliligi koefitsiyenti	Bankning risk darajasi va barqarorligini baholaydi.
5	Foya darajasi va xarajat samaradorligi	Foya darajasi	Asosiy faoliyatdan daromad olish samaradorligini ko'rsatadi
		Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR)	Tashkiliy samaradorlik va boshqaruv sifatini baholaydi
		Mustaqil kuzatuv kengash a'zolari ulushi	Korporativ boshqaruvning ochiq va xolisligini anglatadi

Ma'lumotlardan ko'rindaniki, tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar muhim rol o'yndaydi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali bank boshqaruv tizimining qanchalik samarali ekani, faoliyati qanday natija berayotgani, moliyaviy barqarorlik va foydalilik darajasi aniqlanadi. Korporativ

² Ma'lumotlar asosida muallif ishlansasi



boshqaruv samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bankning foydalilik salohiyati, riskka yondashuvi, xarajat va daromad munosabati, shuningdek, bank kapitali barqarorligi va likvidligi kabi jihatlarni qamrab oladi.

Banklar uchun korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari asosan xalqaro (BNBQ, MHXS, Moody's, S&P kabi xalqaro reyting agentliklari) va mahalliy (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining korporativ boshqaruv samaradorligini baholashdagi me'yorlari va tavsiyalari) amaliyotda keng qo'llaniladigan ko'rsatkichlarga asoslanadi. Quyidagi jadvalda Respublikamizdagи ayrim tijorat banklarining moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Ayrim olingan tijorat banklarining 2020-2024-yillar uchun korporativ boshqaruv samaradorligini baholash natijalari³

Nº	Banklar	ROA, %	ROE, %	Risk qiymati SOR, %	Sof foyda	Korporativ boshqaruv samaradorligi
1	O'zmilliyybank AJ	pasaygan	pasaygan	past	o'suvchan	tendensiya pasayishda
2	Agrobank ATB	kyeskin pasaygan	pasaygan	past	jiddiy pasayish	qoniqarli
3	Kapitalbank ATB	pasaygan	yuqori	normal	o'zgaruv-chan	yaxshi
4	Ipak yo'li ATIB	barqaror/ yuqori	yuqori	normal	barqaror o'sish	yuqori
5	Garantbank AJ	pasaygan	juda past	past	zararda	qoniqarsiz
6	Davrbank XATB	yuqori	yuqori	boshqarilmoxda	o'suvchan	yaxshi

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, aksariyat tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimi samarali tashkil etilgan. Bu, avvalo, asosiy moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lgan daromadlilik va kapital yetarligi barqarorligida namoyon bo'lmoqda. Biroq ayrim banklarda foya darajasi qisqarmoqda, bu esa ularning faoliyatida samaradorlikni oshirish va xarajatlarni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bunga erishish uchun xarajatlar/daromadlar (C/I) koeffitsiyentini pasaytirish, aktivlar sifati (NPL) monitoringini kuchaytirish, moliyaviy resurslarni jaib qilish va tashqi moliyaviy sheriklar bilan faol hamkorlikni yo'liga qo'yishga talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtida tijorat banklarida korporativ boshqaruv darajasini baholashning juda ko'p turli usullari mavjud. Uning eng mukammal va universal usullarini birlashtirish, izlash va ishlab chiqish har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan korporativ boshqaruv bank nazoratining samarali ishlashi uchun zarur shartdir. Shunday qilib, bank nazorat organlari har bir tijorat bankida samarali korporativ boshqaruv joriy etilishidan manfaatdordir. O'z navbatida, banklarda korporativ boshqaruvning tegishli darajasi mamlakat Markaziy banklari nazorat organlari ishini yengillashtiradi hamda bank rahbariyati va nazorat organlari o'tasida samarali hamkorlikni yo'nga qo'yishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Belousova, Veronika; Karminsky, Alexander; Myachin, Nikita; Kozyr, Ilya. Bank Ownership and Efficiency of Russian Banks. Emerging Markets Finance and Trade, Vol. 57, No. 10, 2019.
- S.Himaj. Corporate Governance in Banks and its Impact on Risk and Performance: Review of Literature on the Selected Governance Mechanisms. Journal of Central Banking Theory and Practice, Vol. 3, Issue 3. Warsaw. 2014.
- Ulla, S. Role of Corporate Governance in Bank's Efficiency in Pakistan. Business and Economics, Vol. 15, Issue 1, апрел 2020.
- Балабанов И.Т. сноъы финансового менеджмента : Учеб. пособие для сред. спец. учеб. заведений / И. Т. Балабанов. - 3. изд., доп. и перераб. - Москва: Финансы и статистика, 2010. – 525 с.

³ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi



5. Бланк И.Т. Управление финансовыми ресурсами. Учебник. -М.:Омега-Л, 2010,-768 с.
6. Головань Е.И., Оношко О.Ю. Роль эффективного корпоративного управления в системе минимизации рисков коммерческого банка // Baikal Research Journal, №2, 2017. -92-101.
7. Каплан Р., Нортон Д. «Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию». Перевод с англ. М.: Олимп-Бизнес, 2004.- с.53.
8. Temirov A.A. Improvement of corporate governance in the banking sector of the Republic of Uzbekistan // Modern school of Russia. Issues of modernization. No. 1 (38, v2), 2022, pp. 28-30.
9. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Монография. Т.:Молия, 2008. -204 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100